

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

MEXANIKA FAKUL'TETI

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish

kafedrasi

34-KXM-07 gurux talabasi

Sharipov A'lamxon Alixonovich

DIPLOM LOYIHASI

Mavzu: Bedapoyalarni xaydash uchun plug konstruktsiyasini
takomillashtirish

NAMANGAN 2011 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

MEXANIKA FAKUL TETI

Mexanika fakul teti dekani
_____ dots.Sh.Sh.Kenjaboev
«_____» _____ 2011 yil

Himoyaga ruxsat etilsin:
“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiya-
lashtirish” kafedrasi mudiri
_____ dots.A.A.Nasritdinov
«_____» _____ 2011 yil

Bakalavr darajasini olish uchun

DIPLOM LOYIXASI

Mavzu: Bedapoyalarni xaydash uchun plug konstruktsiyasini
takomillashtirish

Diplom loyihasini bajardi:

5630100-Qishloq ho'jaligini
mexanizatsiyalashtirish ta'lim
yo'nalishining 4-kurs talabasi

A.Saripov

Diplom loyixasi rahbari:

dots.A.Nasritdinov

Maslahatchi:

k.o'qit. Sh.Mamadaliev

Namangan – 2011 yil

MUNDARIJA

KIRISH

1.Umumiy qism	6
1.1Kosonsoy tuman MTP tarixi	8
1.2Mavzuni asoslash.....	8
1.3Tuproqni texnologik xossalari	10
1.4Texnologik operatsiyalar , jarayon lar va tuproqqa ishlov berish tizimlari.....	12
1.5Shudgorlash turlari.....	14
1.6Pluglarga qo`yiladigan agrotexnik talablar	14
2.Texnologik qisim.....	15
2.1Pluglarni tasniflanishi.....	15
2.2Lemixli puluglarning umumiy tuzilishi va ishjarayonlari.....	16
2.3Plug pichoqlar	16
2.4Osma pluglardan foydalanish.....	18
2.5Maxsus pluglar.....	19
2.6Takomillashgan plunging tuzilishi.....	21
3.Konstruktorlik qism.....	24
4.Iqtisodiy qism.....	30
5.Hayot faoliyati xafsizligi.....	35

Referat

Ushbu diplom loyhasi Bedapoyalarni haydash uchun plug konstruksiyasini takomillashtirishga qaratilgan .

Diplom loyhasi bo`lim varoq , rasm , jadvallardan iborat .

Tushuntiruv qismi va grafik qismida diplom loyhasining asosiy mazmuni yoritilgan .

Diplom loyhasida mavjud plug korpusi yoniga ildiz o`tlarni maydalab qirquvchi pichoqlar o`rnatilgan , ildiz o`tlarni maydaroq qirqish uchun pichoqlar ikkita bo`lib , ular har – xil chuqurlikda o`rnatiladi.

Haydov jarayonida pichoqlar o`tlarni qirqib maydalab haydov chuqurligiga tashlab ketadi. Haydov korpuslari bilan ko`milgan o`tlar kelgusi yilgacha ko`milib chirib ketadi .Shu bilan birga dalalarni o`tlardan tozalashga sarflanadigan xarajatlar kamayadi .Bu esa paxtani tannarxini pasaytirib hosildorligini oshishiga olib keladi.

Kirish

Agrar sektorning yuksalishi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omilli va manbai hisoblanadi. Agrar sohaga mamlakat yalpi mahsulotlarining chorak qismi to'g'ri keladi va bu soha bilan ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmidan ortiqrog'i bevosita aloqador .

Shuning uchun qishloq xo'jaligini rivojlantirish hozirgi davrning o'ta muhim vazifasidir .

Bu esa ko'p ukkladli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hisobga olgan holda uning moddiy texnika bazasini mustaxkamlash bilan bog'liq .Qishloq xo'jaligida mashinalarni qo'llash mehnat unumdorligini oshiradi , barcha ishlarni qat'iy rioya qilgan holda eng maqbul muddatlarda bajarishga imkon beradi .Bu provardida mehnat va xarajatlar sarfini kamaytirishga olib keladi .

Bu esa ayniqsa katta mehnat va kuch talab etadigan haydov jarayonida ko'rinadi . G'1.2G'

Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek bizni boqadigan manashu yer , manashu tuproq.Uning unumdorligini oshirish va undan oqilona foydalanish uchun yerga ishlov berishning maqbul tizimlarini va tuproqqa ishlov beradigan mashinalarning maqbul ishchi qisimlarini yaratishdan iborat .G'4G'

Diplom loyihasi mavzusining dolzarbligi. Tuproqni ekishga tayyorlash ishlarini kompleks mexanizatsiyalashtirishga erishish uchun paxta maydonlariga ishlaydigan agregatlarini takomillashtirish , ularning yangi nusxalarini yaratish yaxshi va sifatli paxta hosilini olishning garovidir.

Shuning uchun ham ko'p yillik o'simliklar ekilgan (beda) dalalarni haydashda mavjud pluglar bilan amalgam oshirilganda , o'simlik ildizlari haydov chuqurligiga yaxshi ko'milmasdan , erta bahorda dalani tozalash uchun katta ekspulutatsion sarflarni amalga oshirishga to'g'ri keladi .

Yuqoridagilardan kelib chiqib , ushbu diplom loyihasida mavjud ikki yarusli plug korpusini takomillashtirdik unda mavjud plug korpusi yoniga ildiz o'tlarni maydalab qirquvchi pichoqlar o'rnatilgan .Haydov jarayonida pichoqlar o'tlarni qirqib maydalab haydov chuqurligiga tashlab ketadi .

Haydov korpuslari bilan ko'milgan o'tlar kelgusi yilgacha chirib ketadi .Shu bilan birga barcha dalalarni o'tlardan tozalashga sarflanadigan xarajatlar kamayadi.

Bundan ko'rinib turibdiki taklif etilyotgan ishlanmani qo'l mehnati kamayib hosildorlik oshadi , bu esa diploma loyhasini dolzarbligidan dalolat beradi .

Diplom loyihasining maqsadi. Ko'p yillik o'simliklar ekilgan dalalarni haydash uchun plug korpuslari yoniga ikki xil balanglikda gorizontal pichoqlar o'rnatilishi natijasida o'simlik ekilgan dalalarni sifatli haydalishini ta'minlanadi.

Amaliy ahamiyati. Takomillashgan ikki yarusli pluglar bilan haydalgan ko'p yillik o'simlik ildizlari 5-7 sm uzunligida qirqilishi ta'minlanadi . Bundan tashqari qo'l mehnatini kamiyishi hisobiga eksputatson xarajatlar kamayib , o'simlik ildizlari haydov chuqurligiga ko'milishi ta'minlanadi yoki texnologik jarayonni sifatli bajarilshi ta'minlanadi.

Diplom loyihasining tuzilishi va hajmi . Diplom loyihasining tuzilishi , kirish, umumiy qism, texnologik qism, konstruktorlik qismi , iqtisodiy qismi , hayot faoliyati havsizligi , atrof - muhit muhofazasi , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat rasm ro'yxatidan tashkil topgan .

1.Umumiy qism

1.1Kosonsoy tuman mashina traktor parkining tarixi .

Namangan viloyati Kosonsoy tumani 1936- yilda ko`pchili shaxslar tashabbusi bilan mashina traktor stansiyasi tashkil topgan .So`ngra 1954-yilda turli sabablarga ko`ra mashina traktor stansiyasi,Uz mash servis tashkilotiga aylantirildi 1956-yilda Uz mash servis esa Uz selxoz texnikaga aylantirildi.Bu tashkilot 1992-yilga kelib Dexqon mash servisga aylantirildi . 1996-yilga kelib V.Boyboyev boshchiligida Dexqon mash servis nigizida Kosonsoy Mashina traktor parki tashkil etildi.Mashina traktor parkiga V.Boyboyev rais qilib tayinlandi.O`sha davrda Mashina traktor parkida 270 dan ortiq ishchi va hodimlar o`z o`z ish va faoliyatlarini olib borishgan . V.Boyboyevdan keyin Mashina traktor parkida bir qator shaxslar raislik qilishi va 2010-yilda avgust oyida L.Umarov rais qilib tayinlandi va u hozir ham raislik qilmoqda. Kosonsoy mashina traktor parki hozirgi kunda 100 tadan ortiq fermer xo`jaliklariga xizmat ko`rsatib kelmoqda .Mashina traktor parki fermerlar bilan 13 ming gektar yerga haydov va donni yig`ib olish uchun shartnoma tuzgan .Bulardan 5 ming gektar paxta va 8 ming gektar g`alla maydonlaridir .

Kosonsoy tuman mashina traktor parkida tasarrufida 14 ta kombayinlar , 9 ta magnum traktorlari 1 ta kamaz , 3ta gaz – 53 , 14 ta haydov traktorlar va 4 ta chopiq kultivatorlari xizmat ko`rsatmoqda.

Mashina traktor parki fermer xo`jaliklarining xususiy texnika va agregatlarini remont qilish ishlari haqida shartnoma asosida ishlaydi .

Mashina traktor parkining iqtisodiy o`ishi 2006 – yilda 533- milion , 2007-yilda 545 milion , 2008- yilda 560 milion , 2009-yilda 567 milion , 2010-yilda 580milion so`m o`sish bilan o`sib bormoqda .


2011 – yilda mashina traktor parki 590 milonga iqtisodiy o`sish mo`ljallanmoqda.

1.1 –Jadval.

Kosonsoy MTP si hududidagi fermer xo`jaliklarining 2011 – yil hosili uchun ekin yerlari to`g`risida ma`lumot.

№	Fermer xo`jaliklari nomi	Maydoni .gektar	G`alla .gektar	Paxta .gektar
1	Akmaljon Mamajonov	87.3	42	37
2	Islomjon Husanov	51.4	30	20
3	Abduvohid hosilot	92	41	50
4	Ziyokor oltin diyor	49.4	27	22
5	Dilshod Guljaxon	92.6	55	37
6	Aylanma uzunarig`i	87.7	40	47
7	Tolachi G`allakor	142.3	75	66
8	Ulug`chinor Shabboda	80	50	30
9	Amonxon	88	46	40
10	Kosonsoy shirin bulog`i	18.5	10	5
11	Uzvatilloxon hoji	48.5	22	25
12	Kambarsada	29.1	15	12
13	Shurchak ne`mati	47.5	28	19
14	Isparonsoy kelajagi	60	45	15
15	Islom ota	100	58	41
16	Nihol	35	17	17
17	Toshkent	20		20
18	Rayxon	79	48	30
19	Gandumi dukortepa	73	26	44
20	Alp jamol saxovati	57	28	28
21	Zarib	27	19	7

Kosonsoy tuman MTP sining bosh rejasini



- 1.Qoravulxona
- 2.Ma`muriy bino
- 3.Ombor
- 4.Import texnik xizmati ko`rsatish sexi
- 5.STO – MTP
- 6.Ombor
- 7.Import texnikalarini saqlash joyi
- 8.Hojatxona
- 9.Ayvon
- 10.Molxona
- 11.Hojatxona
- 12.Nam .Yoqilg`i apparatlari zavodi.
- 13.Temirchilik tsexi
- 14.Molxona
- 15.Payvandlash tsexi
- 16.STO – MTP
- 17.Elektrik
- 18.Avt.tex .xiz.ko`rsatish joyi
- 19MTP chozr. xo`ja.avtotrans idoralari
- 20.YMM omborxonasi
- 21.Dam olish xonasi.

1.2 Mavzuni asoslash

Tuproqqa mexanik ishlov berishning asosiy maqsadi - madaniy o`simliklarni o`sishi va rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish va tuproq unumdorligini oshirishdan iborat .

Paxtachilik mintaqasida ishlatiladigan ikki yarusli va aylanma pluglar bilan ko`p yillik o`simlik ekilgan dalalarni haydalganda , o`simlik ildizlari yaxshi ko`milmasdan , haydov chuqurligiga tushmay , haydov zonasida qoladi , natijada erta bahorda dalani tozalash uchun juda katta eksplutatsiya sarf qilishga to`g`ri keladi. Bundan tashqari mavjud pluglar bilan haydalganda sifatli shudgorlashni amalga oshirib bo`lmaydi .

Yuqoridagilardan kelib chiqib diplom loyihasida ikki yarusli plug korpuslari yoniga ikki xil balandlikda gorizontal pichoqlar o`rnatiladi . Ishlash jarayonida pastki va yuqori yarus pichoqlari ko`p yillik o`simlik ildizlarini 5-7 sm uzunlikda qirqib , haydov chuqurligiga tashlab ketadi . Natijada erta bahorgacha o`simlik ildizlari chirib ketadi .Bu esa katta eksplutatsion sarflarni kamaytiradi .Bulardan ko`rinib turibdiki, diplom loyihasi o`ta dolzarb muammoni yechimiga qaratilgan .

1.3 Tuproqning texnologik xossalari.

Tuproqqa mexanik ishlov berish jarayonida namoyon bo`ladigan va texnologik jarayon qonuniyati hamda uni kechish jarayonida jiddiy ta`sir ko`rsatadigan xossalar tuproqning texnologik xossalriga ko`radi. shunday ekan ,tuproqning texnologik xossalriga uni har -xil turdagi deformatsiyalarga qarshiligini, ishchi organlar yuzasiga ishqalanishini va ichki ishqalanishini, yopishqoqligini, bog`liqligini , elastikligini, qayishqoqligini va abraziv xususiyatlarini kiritish mumkin.

Har xil turdagi deformatsiyalarga qarshiligi.Tuproqqa mexanik ishlov berishda quvvat sarfini kamaytirish yo`llari usullarini ishlab chiqish uchun uning har xil turdagi kuchlanishlarga mustaxkamlik chegarisini bilish kerak.Shuni qayt qilish kerakki , strukturasi buzilmagan tuproqning har - xil turdagi kuchlanishlarga mustaxkamlik chegarasini aniqlash kerak.. Tekshirishlar natijasida eng kam mahkamlik chegarasi cho`zilishda , o`rtachasi –siljishda va buralishda eng katta mahkamlik chegarasi esa siqilishda kuzatilgan .

Shuning uchun cho`zilish deformatsiyasi yordamida ayrim strukturali agregatlarni orasidagi bog`liqlikni parchalash yo`li bilan minimal quvvat sarf qilib tuproqni yumshatishga erishish mumkin . Hozirgi vaqtda tuproqqa ishlov berish samarasini oshirishning quyidagi usullarini keltirish mumkin :

Eng kam quvvatli sig`im cho`zilish deformatsiyasini qo`llashi har xil tomonga yo`nalgan deformatsiyalar bilan tuproqqa ta`sir qilishi ;

Eng zaif zveno usullari qo'llash .

Yuqoridagi prinsiplarga asoslangan tuproqqa ishlov berish mashinalari va qurollarining ishchi organlarini yaratish ma'lum bir texnologik qiyinchiliklar bilan bog'liq . Ammo bu prinsiplar asosida ishlaydigan ishchi organlarni yaratishda ma'lum bir muvaffaqiyatlar ham bor .Bularga tuproqni asosan cho'zilish deformatsiyasi bilan parchalaydigan "Parapilan"tipidagi ishchi organni tuproqqa har xil yo'nalishdagi deformatsiyalar bilan ta'sir qiladigan tutqichi oldida diskli pichoq o'rnatilgan chuqur yumshatkichni, yumshatgich tutgich va freza kombinatsiyasidan iborat mashinani "eng zaif zveno " asosida ishlaydigan tebranuvchi ishchi organli mashinalarni ko'rsatish mumkin.

Ezishga qarshilik. Tuproqqa ishlov berish mashinalari va qurollarining ko'pchilik ishchi organlari hamda energetik tashuvchi va ishchi mashinalarining har-xil tayanch yuzalari tuproq bilan o'zaro ta'sirida bo'lganda uni ezadi .Shuning uchun tuproqning ezishga qarshiligi faqat tuproqqa ishlov berish mashinalariningina emas , balki boshqa bir qator qishloq xo'jalik mashinalarining ham ish sharoitini baholash uchun eng asosiy tavsiflardan biri hisoblanadi .

Tuproqning ezishga qarshiligi ko'rsatkichini niqlash uchun har-xil turdagi quydagi o'lchash ustunlari qo'llaniladi: zarba ta'sirli, statik yuklamali , majburiy siljувchi devormtorli .Oddiy va qulay bo'lgani uchun majburiy siljувchi devarmatorli o'lchash asbobi eng ko'p qo'llaniladi.Tuproqning ezishga qarshiligi ko'rsatkichi tuproqni o'rtacha qattiqligi hisoblanadi, uni aniqlash uchun qo'llaniladigan o'lchash uskunasi esa qattiqlik o'lchagich deb ataladi.

Ishqalanish koefitsienti doimiy kattlik emas .U ko'p omillarga , asosan tuproqning mexanik tarkibi va namligiga bog'liq .Soz tuproqning ishqalanish koefitsienti qumnikidan tahminan 2 – marta katta .Bu shunday izohlanadiki, kam bog'langan qumli tuproqlarga ayrim qum zarralari sirpanmaydi, balki ishqalanish yuzasi buyicha dumalaydi , shu boisdan ularning harakatlanishiga qarshilik va ishqalanish koefitsienti kichik bo'ladi, ishqalanish koefitsientiga tuproqning namligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Odam 8...10 foizgacha namlikda bo'lgan "haqiqiy" ishqalanish yuz beradi va ishqalanish koefitsienti f tuproq namligiga bog'liq bo'lmaydi.Namlikni keyingi oshishi bilan ishqalanish koefitsientini o'sishi tuproq zarrlarini metall yuzasiga molekulyar tortish kuchlarini paydo bo'lishi bilan izohlanadi , uning qiymati tuproq namligini 8...10 dan 30....45 foizgacha ortishi bilan kattalashadi .Taxminiy hisoblar uchun , ya'ni namlikni va mexanik hisobga olmganda , f q 0.5 va $yq26^{\circ} - 30^{\circ}$ deb qabul qilinadi .Tuproqning firiksion xossalari unga mexanik ishlov berishning jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi : mexanik ishlov berish mashinalari va qurollari ishchi yuzalari bo'yicha tuproqni ishqalanishi bilan bog'liq bo'lgan zararli qarshilikni yengish uchun quvvatining 30 dan 50 foigacha.

Tuproqning yopishqoqligi – bu uning zarrlarini har-xil jisimlarga yopishish hamda yelimlanish qobiliyatidir .U ikki tamonlama : tuproq mashinalarinning ishchi organlari yuzasi bo'yicha sirpanganda va n bilan aloqada bo'lgan qattiq jismlarini undan ajratilganda qarshilik sifatida namoyon bo'ladi .

Yopishish tufayli sirpanishga qarshilik quydagi formula orqali aniqlanadi : **$T_{y0}q P.SQPNS$**

bu yerda P_n – normal bosim bo'lmaganda solishtirma yopishishning urunma kuchlari koefitsienti , P_a : P – normal bosim tamonidan yuzaga keltiriladigan solishtirma yopishishning urunma kuchlari koefitsienti , $1G'm^2$: S - ko'rinadigan aloqadiga yuza, m^2 : N - normal bosim kuchi , H .

Tuproqning plastikligi – uni tashqi kuch ta'sirida deformatsiyalanish va bu deformatsiyani kuch olinganda keyin saqlash xususiyati.Plastiklik ,asosan tuproqni mexanik tarkibiga va namligiga bog'liq bo'lib , plastiklik soni bilan tavsiflandi. **$W_Nq W_m - W_P$**

Bu yerda W_m plastiklikning yuqori chegarasi, ya'ni tuproqni juda kichik chayqalishda yoyilib ketish namligi, W_P – plastikni pastki chegarasi , ya'ni diametri 3mm bo'lgan tayoqchilikka aylantirilgan tuproqni uvalana boshlanishdagi namligi . Qum plastik emas , boshqa mexanik tarkibidagi tuproqlarning plastiklik soni esa quydagicha: soz tuproqniki 17 dan katta ; qumoq tuproqniki- 7 dan katta va 17gacha qumli tuproqniki 1....7. Tuproqni elastikligi deb uni tashqi kuch olingandan keyin o'zining shaklini tiklash xususiyati tushuniladi. Tuproqning elastikligi asosan uning mexanik tarkibiga, namligiga va chidamliligiga bog'liq. Tuproqning elastiklik deformatsiyasini nisbiy miqdori 30dan 80 gacha o'zgarib turishi mumkin. Elastiklikni plastiklikka qarshi qo'yadilar.

Tuproqning qovushqoqligi –uni faqat yuklama funksiyasida emas, balki vaqt funksiyasida ham sekin deformatsiyalanish xususiyati .Shunday qilib , qovushqoq tuproqning deformatsiyasi faqat yuklamaga emas , balki uning ta'sir muddatiga ham bog'liq . Yuklamaning ta'sir muddati qancha ko'p bo'lsa deformatsiya shuncha katta bo'ladi .Tuproqning qovushqoqligi uni tashkil qiladigan

fazalarini o'zaro siljish hodisasiga bog'liq .Masalan ; traktor botqoqli tuproqda qancha sekin harakatlansa , uning g'ildiragining o'zi shuncha chuqur bo'ladi va aksincha .

Mo'rtlik odatda qovushqoqlikka teskari qo'yiladi .Mo'rt jismlarning maxkamlik chegarasi elastik chegarasidan oshmaydi yoki unga teng bo'ladi shunday qilib , mo'rt jisimda plastik deformatsiyalar bo'lmaydi. Masalan og'ir mexanik tarkibli juda quruq tuproqlar mo'rt bo'lib, qoladi ya'ni ular amalda chuqur qoldiq deformatsiyalarsiz parchalanadi .

Faqat ayrim hollarda tuproq yuqoridi ko'rsatilgan xossalarning birga ega bo'lishi mumkin, ya'ni faqat elastiklikka yoki plastiklikka va hakoza.

Umumiy holda tuproq elastik – qovushqoq plastik jism .Ammo tuproqning u yoki bu parametrlarini o'zgarishi bilan uni u yoki bu fundamental xossalari nisbatini o'zgarishi yoki yo'qolishi yuz beradi. Masalan , namlik juda kamayganda tuproq qovushqoqlik xossasini yo'qotishi va mo'rtlik xossasiga ega bo'lishi mumkin .Chimlilik va uni tuproqning texnologik xossalariga ta'siri. Bo'z va tashlab qo'yilgan yerlar, qurutilgan botqoqlar, yaylovlar, ko'p yillik o'tlar ekilgan dalalarning tuproqlarida o'simliklarni ildizlari mavjud bo'ladi . Yirik ildizlar palaxsasining yuqori qismini 6.....8 dan 16.....18 sm gacha qatlamda zich joylashgan bo'lib, uning pastki qismiga esa, odatda , faqat ingichka mayda ildizchalar joylashgan . Bunday hollarda tuproq palaxsasi o'zining texnologik xossalari bilan keskin farq qiladigan ikkita qatlamga ajraladi. Masalan, yuqori chimli qatlam ko'proq o'zini elastik sifatida namoyon qiladi. Shu vaqtda pastki qatlam plastiklikka ega bo'ladi, bazida esa uni sochiluvchi material sifatida o'rganish mumkin .Aniqlanishicha, masalan ,chimli tuproqning mahkamlik chegarasi u bilan bir xil mexanik tarkibidagi va namlikdagi eskidan haydashib keladigan yerlarning tuprog'i mahkamlik chegarasidan 3 marta ortiq .

Shunday qilib , chimlik tuproqning texnologik xossalariga juda katta ta'sir ko'rsatadi . Shuning uchun tuproq mexanik ishlov berish obe'kti sifatida tavsiflanganda uni , albatta , hisobga olish kerak. Chimlilikning tavsifi sifatida haydov qatlamdagi chim qatlamining qalinligi, chimning bog'liqligi va chimlilik darajasi qabul qilingan.

O'simliklarni tarkibiga va ularning o'sishi vaqtiga qarab chim qatlamining qalinligi 6 dan 18 smgacha bo'lishi mumkin . Chimning bog'liqligi uni uzilishga tekshirish yo'li bilan aniqlanadi . Chimning bog'liqligi deb uzlish yuz bergandagi kuchni namunani ko'ndalang kesim yuzasiga nisbati , ya'ni maksimal kuchlanish yoki uzulishga mahkamlik chegarasi tushuniladi.

Haydov qatlamining chimlilik darajasini aniqlash uchun uni chuqurligi buyicha tuproq namunasini olinadi va undan o'simliklarni yer osti qismlari ajratiladi.Tupoqdan ajratilgan ildizlar yuviladi, havo – chuqur holatgacha quritiladi va og'irligi o'lchanadi.

O'simliklarning yer osti qismlari massasini namuna hajmiga nisbati palaxsaning chililigining Ma'lumotlarga ko'ra tupoqlarni o'rtacha chimlilik darajasi quyidagicha: o'zlashtirilmagan yerlarda 18....30 gg' dm, tashlandiq yerlarda 24gg'dm gacha ,ikki yil foydalanilgan bedapoyalarda 4,5.....8gg'dm .

Abrazivli – tuproqqa ishlov berish mashinalari va qurollarining deyilishda namoyon bo'ladi va asosan, tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq .

Masalan , bir gektar yer shudgor qilinganda lemezning yeyilishi: soz va qumoq tuproqlarda ikki dan 30gr gacha: kam toshli qumoq va qum tuproqlarda 30dan 100gr gacha , ko'p toshli qum tuproqlarda 100 dan 450gacha tashkil qilishini aniqlangan .

Shunday qilib tuproq abrazivligning umumiy kriteriyasi deb unmdagi fizik qumning miqdorining hisoblasa bo'ladi . Qum tuproqlarning yuqori abrazivligi ular tarkibidagi tuproqning hosil qiladigan minerallardan eng qattig'i kverts ko'pligi bilan tushuntiriladi.

1.4 Teznologik operatsiyalar, jarayonlar va tuproqqa ishlov berish tizimlari .

Texnologik operatsiyalar.Tuproqqa ishlov berishning asosiy maqsadiga quyidagi texnologik operatsiyalarni bajarish yo'li bilan erishiladi .

Ag'darish tuproq ning yuqori va pastki qatlamlarini o'zaro joylashtirishini o'zgartirish . bunda o'simlik qoldiqlari, chimlar , begona o'tlar chuqur ko'miladi va ular mikroorganizmlar ta'sirida parchalanib tuproqning hosildorligini oshiradi .

Yumshatish ishlov beriladigan tuproq qatlamini bo'lak – bo'lak strukturali agregatlarga ajratish .

Bunda strukturali agregatlar orasidagi masofa kattalashadi va natijada tuproqning hajmiy massalari nisbati uning yumshatish darajasini ifpdalaydi G'8G'

Yumshatish , asosan tuproqning uvalash ya'ni uning strukturali agregatlarini parchalash orqali amalga oshiriladi. Bunda 1mm dan kichik bo'lgan agregatlarni hosil bo'lishi maqsadga muvofiq emas

, chunki ular eroziyon havfli hisoblanadi. O'ldami 0.25 mm dan kichik bo'lgan agregatlarni hosil bo'lishi esa umuman maqbul emas.

Bunday agregatlar changsimon agregatlar deyiladi, ularni hosil qilish jarayoni esa tuproqni kukunlash deb ataladi. Changsimon zarrachalar massasini namunaning to'liq massasiga nisbati tuproqni kukunlash darajasini tafsivlaydi.

Kesish – ishlov beriladigan palaxsaning yoki yupqa qatlami qolgan yaxlit tuproqdan ajratish.

Zichlash yumshatishga teskari bo'lgan jarayon bunda tuproqning kapilyarligi oshadi, umumiy g'ovakligi esa kamayadi.


Aralashtirish tuproq agregatlari, o'g'itlar va boshqalarni o'zaro joylashishini o'zgartirish. U ishlov beriladigan qatlamni bir xilligini ta'minlash hamda tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlarni tekis tarqatish uchun bajariladi.

Yuza tekislash chiziqli urug'larni bir xil chuqurlikda ko'mishni ta'minlash, mashinalarning ish sharoitini va sug'orishda suvni tekis tarqatishni yaxshilash uchun dala yuzasidagi notikisliklarini yo'qotish.

Begona o'tlarni kesish va so'gorish (e-rasm) – o'simlik ildizlari va poyalari kesish va so'g'orish yo'li bilan begona o'tlarni yo'qotish.

Pushta jo'yak xosil qilish va ariq ochish (1.1- rasm) tuproqning suv, havo chiziqli termik va ozuqa rejimini sozlashga sharoit yaratishadi.

Texnologik jarayon odatda, tuproqqa ishlov berish qurolining ishchi organi yagona texnologik jarayonni tashkil qiladigan bir nechta texnologik operatsiyalarni bir vaqtda bajaradi masalan, shudgorlash texnologik jarayoni palaxsani egat tubi va devoridan kesib ajratish, ag'darish yumshatish va aralashtirish operatsiyalaridan iborat. Quyidagi texnologik jarayonlar keng qo'llaniladi: shudgorlash, chuqur yumshatish kultivatsiya qilish, boronalash, Molalash, chizelli ishlov berish va hakazo.



1.1- rasm .Tuproqqa mexanik ishlov berishning asosiy operatsiyalari .

a – ag'darish : b – yumshatish : v- zichlash: g – aralashtirish: d- tekislash : e- begona o'tlarni kesish : j- ariq ochish ,pushta va jo'yak hosil qilish .

Tuproqqa ishlov berish tizimi – qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish uchun qo'llaniladigan bir nechta texnologik operatsiyalar yoki jarayonlar tuproqqa ishlov berish tizimini tashkil qiladi .Tuproq iqlim sharoitiga va o'simliklarni yetishtirish texnologiyasiga bog'liq ravishda ag'dargichli , ag'dargichsiz va minimal tizimlar qo'llaniladi .

Ag'dargichli tizim tuproq palaxsasini to'liq ag'darishni nazarda tutadi , bunda o'simlik qoldiqlari , begona o'tlar urug'lari kasallik qo'zg'atuvchilar haydov qatlamining pastki qismiga ko'miladi.Bunda o'simlik qoldiqlari ayrob mikroorganizmlar ta'sirida tezroq parchalanadi,begona

o'tlar , zararkunandalar kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar esa o'ladi .Ag'dargichli ishlov berish yetarli va ortiqcha namli joylarda eng ko'p qo'llaniladi .

Ag'dargichsiz tizim palaxsani aylantirishni istisno qiladi , bunda tuproqni shamol erroziyasidan himoya qilish uchun dala yuzasida poyalar saqlab qolinib tuproq chuqur yumshatiladi .Ishlov berishning bu usuli namlik yetarli bo'lmagan hududlarda tuproqdan namini yig'ish va saqlash usuli sifatida ham qo'llaniladi. G'9G'

Minimal tizim tuproqqa ishlov berish sonini va ularning chuqurligini kamaytirishni, agregatni bir marta o'tishida bir necha texnologik operatsiyalar va jarayonlarni mujassamlashuvini hamda ularni bir vaqtda bajarilishini nazarda tutadi. Bu tizim traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining yurish qismlari ta'sirida tuproqni zichlashishi va kukunlashishini kamaytirish hamda tuproqni ekishga tayyorlash muddatini qisqartirish uchun qo'llaniladi.

Ba'zi bir hollarda hamma yuzaga emas, balki faqat uzunligi bo'yicha dalaning tor bo'laklariga ishlov beradi va ularga urug' ekiladi. Bu tuproqqa nol ishlov berish deyiladi.

Ishlov berish tizimi tuproqni himoya qiladigan, quvvat sarfini tejaydigan, o'zini iqtisodiy oqlaydigan va atrof-muhit uchun zararsiz bo'lishi kerak. Bu talablarni bajarish qo'llaniladigan mashinalarni to'g'ri tanlash va optimal ishlatish, ularni texnik soz holatda tutib turish, tog'ri agregatlash va so'zlash bilan bog'liq.

Ishchi organlarning ishlov berish huqurligi va bajaradigan operatsiyalariga bog'liq ravishda tuproqqa asosiy , yura va maxsus ishlov berish turlari ajratiladi .

Asosiy ishlov berish . Bu odatda yetishtilgan o'simlikdan keyin tuproqqa birinchi chuqur (20..35) ishlov berish .Asosiy ishlov berishga shudgorlash , palaxsani aylantirmasdan chuqur yumshatish , ferezalash va chizelash kiradi.

Yuza ishlov berish ekish oldidan , ekish jarayonida yoki ekishidan keyin 14 sm dan katta bo'lmagan chuqurlikda o'tkaziladi .U kultivatorlar boronalar , g'altaklar , lushshinliklar , motigalar bilan tuproqni yumshatish , aralashtirish yoki zichlash , begona o'tlarni kesish va o'g'itlarni ko'mish maqsadida bajariladi.

Maxsus ishlov berish yangi yerlar o'zlashtirilganda hamda o'simliklarni normal o'sishi uchun ba'zi bir maxsus sharoitlar yaratish uchun qo'llaniladi. Unga butazor-bo'tqoq pluglar bilan shudgorlash, plantaj va yarusli ishlov berish, katta chuqurlikda yumshatish, tuproqni frezalash, pushtalar olish va boshqator kiradi.

1.5 Shudgorlash turlari.

Tug'ri , ilmiy asoslangan tuproqqa ishlaov berish usullarini qo'llash tuproqning faqatgina samarali emas , balki potensial hosildorligini ham oshirishning asosidir . Shuning uchun har xil tabiiy iqlim hududlarda tuproqqa ishlov berishning turli usullari qo'llanish kerak.

Shudgorlashning har xil turlarini amalga oshirish uchun sanoat tomondan turli konstruksiyadagi ishchi organlar bilan jihozlangan oluglar ishlab chiqariladi.Shuning uchun dehqonchilik madaniyatini ko'tarishda , tuproq unumdorligi va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirishda eng muhim vazifa mahalliy tuproq – iqlim sharoitning va hatto , ayrim bir dala tuproqning xossalarnig hisobga olgan holda unga eng samarali ishlov berishning ta'minlaydigan pluglarni va ularning ishchi organlarini to'g'ri tanlashdir.

Shudgorlashning quyidagi yuralari 1.2-rasm qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi.

Palaxsani irg'itish (1.2.a-rasm)-chimqirqar yoki burchak kesgijlarni qo'llab shudgorlash. Bu eng ko'p tarqalgan shudgorlash turi.


Palaxsani aylantirish (1.2.r-rasm) –palaxsani 180 ° -ga aylantirish. Asosan, chimli tuproqlar shunday shudgorlanadi.

Ag'dargichsiz shudgorlash(1.2.6-rasm)–tuproqqa ag'dargichichsiz pluglash bilan,ya'ni palaxsalarini aylantirmasdan ishlov berish.

Tuproqni chuqurlashtirish bilan shudgorlash (1.2.e-rasm)- shudgorlash bilan birga haydov ostini yushatish.

Ikki va uchyarusli shudgorlash(1.2.3-rasm)-tuproqqatamlarini palaxsalarini o'zini almashtirib shudgorlash .

Plantaj shudgorlash – 40 sm va undan ko'proq chuqurlikda shungorlash. U o'rmon va buta daraxtlarni ekish oldidan o'tqaziladi .



O`rkachli – zinasimon shudgorlash – qiyalikka ko`ndalang shudgorlash , bunda har - xil chuqurlikda o`rnatilgan bu korpuslari yordamida dala yuzasida o`rkachlar va haydov osti qatlamida esa zinasimon plug tovonni hosil bo`ladi.

Konturli shudgorlash – murakkab qiyalikli dalalarni ularning gorizantallariga yaqin yo`nalishlar bo`yicha shudgorlash .Bunda asosan suv erroziyasidan qarshi kurash nazarada tutadilar .

O`rkachli shudgorlash – qiyalikka ko`ngdalang shudgorlash .O`rkachlar bitta ag`dargichi uzun bo`lgan plug bilan hosil qilinadi.

Meliorativ shudgorlash – tuproqning xossalarini yaxshilash uni maxsus pluglar bilan chuqur shudgorlash .

Tekis shudgorlash – butun dala bo`yicha palaxsalarni bir tamonga yoki o`z o`rniga 180° ag`darib shudgorlash . Rombsimon shudgorlash – palaxsani romb shaklida kesib shudgorlash . Kesimi to`rtburchakli shakliga ega bo`lgan ananaviy shudgorlashni rombsimon shudgorlash quydagi afzalliklarga ega.Birinchidan , plug korpusining bir xil qamrash kengligida rombsimon shudgorlash kenroq egatni ta`minlaydi, bu esa g`ildirakli traktorlarni egat bo`yicha Bashqarishni yengillashtiradi . Ikkinchidan korpuslarni plug uzunligi bo`yicha bir- biriga yaqin joylashtirish mumkin bu esa osma pluglar uchun juda muhim .

1.2 rasm .Shudgorlash turlari .

a- palaxsani irg`itish b -madaniy chimqirqarlar bilan b -burchak kesgich bilan g-palaxsani aylantirish d-ag`dargichsiz, e –tuproqning haydov ostida chuqur yumshatish bilan : j-kesik korpuslar bilan ;1- kesik orqali o`tadigan kulrang tuproq qatlamining bir qismi ;2-madaniylashtirilgan palaxsa bilan aralashtiriladigan kulrang tuproq qatlamining qismi ; 3- shudgorlashga qadar madaniylashtirilgan palaxsa ; 4-madaniy palaxsa aralash kulrang qatlamning qismi ; 3-: birinchi madaniy qatlam :1- madaniy qatlam ; 2- kulrang qatlam; 3-illiyuvial qatlam .

1.6 Pluglarga qo'yiladigan agrotexnik talablar

Shudgorlash tuproqqa ishlov berishning eng muhim usuli . Tuproq qancha sifatli shudgorlansa , o'simliklar shuncha yaxshi unib chiqadi va rivojlanadi , hosil yuqori bo'ladi , boshqa qurollar bilan qo'shimcha ishlov berish ham talab qilinadi.

Yuqori sifatli shudgorlashga erishish uchun unga qo'yiladigan quyidagi agrotexnik talablar bajarilishi kerak. Shudgor chuqurlik belgilangan haydash chuqurligiga mos kelishi kerak , o'rtacha haydash chuqurligidan yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan chetlanishlar tekis dalalrada ± 1 sm notekis relefli dalalarda ± 2 sm dan oshmasligi kerak :

- Plugning haqiqiy qamrash kenligining uni konstruktiv qamrash kengligidan chetlanishi $\pm 10\%$ gacha ruxsat etiladi .- Tuproq palaxsasi to'liq ag'darilishi va o'simlik qoldiqlari , begona o't urug'lari to'la va chuqur ko'milishi kerak : shudgor yuzasidagi marzlarni balndligi va egatlarning chuqurligi 5....7 sm gacha ruxsat etiladi: - maqbul namlikli dalalar shudgorlanganda 10sm dan katta kesaklarning miqdori 15...20% oshmasligi kerak .
- Pulug korpuslari kesgan palaxsalar har – xil o'lchamda bo'lishi kerak:
- plugning qo'shni o'tishlari orasida uzilishlar hamda ochiq va yashirincha chala qolgan yerlar , butun paykallarda hamda egatga kirishda va chiqishda shudgorlanmagan qiyiqlarga ruxsat etilmaydi;

Marzalar ostidagi shudgor chuqurligi belgilangan ishlov chuqurligining yordamidan kechik , ularning balandligi esa 7 sm dan katta bo'lmasligi kerak ;

- Palaxsani maydalanishi va tuproq qatlamini yumshatilishi ta'minlashi lozim ;
 - Shudgorlangan dalaning chetidagi burilish yo'lakchalari shudgor qilinishi va ochiq egatlar tekislanishi kerak;
- Shudgorlangan dala yuzasi tekis va tutash bo'lishi , chala hamda haydalmagan yerlar bo'lmasligi kerak .

Shudgor chuqurlik belgilangan haydash chuqurligiga mos kelishi kerak , o'rtacha haydash chuqurligidan yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan chetlanishlar tekis dalalrada ± 1 sm notekis relefli dalalarda ± 2 sm dan oshmasligi kerak :

Plugning xaqiqiy qamrash kenligining konstruktiv qamrash kengligidan chetlanishi $\pm 10\%$ gacha ruxsat etiladi .- Tuproq palaxsasi to'liq ag'darilishi va o'simlik qoldiqlari , begona o't urug'lari to'la va chuqur ko'milishi kerak : shudgor yuzasidagi marzlarni balndligi va egatlarning chuqurligi 5....7 sm gacha ruxsat etiladi: - maqbul namlikli dalalar shudgorlanganda 10sm dan katta kesaklarning miqdori 15...20% oshmasligi kerak .

- Pulug korpuslari kesgan palaxsalar har – xil o'lchamda bo'lishi kerak:
- plugning qo'shni o'tishlari orasida uzilishlar hamda ochiq va yashirincha chala qolgan yerlar , butun paykallarda hamda egatga kirishda va chiqishda shudgorlanmagan qiyiqlarga ruxsat etilmaydi;

Marzalar ostidagi shudgor chuqurligi belgilangan ishlov chuqurligining yordamidan kechik , ularning balandligi esa 7 sm dan katta bo'lmasligi kerak ;

- Palaxsani maydalanishi va tuproq qatlamini yumshatilishi ta'minlashi lozim ;

Shudgorlangan dalaning chetidagi burilish yo'lakchalari shudgor qilinishi va ochiq egatlar tekislanishi kerak;

Shudgorlangan dala yuzasi tekis va tutash bo'lishi , chala hamda haydalmagan yerlar bo'lmasligi kerak .

2 .Texnologik qism.

2.1 Pluglarni tasniflanishi.

Plug – bu yerga asosiy ishlov berish ya'ni shudgorlash uchun mo'ljallangan texnik vositadir .Puluglar vasifasi qo'llaniladigan tortqichlarni turi , traktor bilan agregatlanishi usuli , korpuslarning konstruksiyasi va soni , shudgorlash texnologiyasi bo'yicha tasniflanadi .

Vazifasi bo'yicha pluglar ikki guruhga bo'linadi : umumiy ishlarda mo'ljalgan va maxsus.

Umumiy ishlarga mo'ljallangan pluglar dalachilikda faqat toshlar bilan ifloslanmagan , eskidan haydalib keladigan yerlarda ishlatiladi.

Maxsus pluglarga toshli tuproqlar , to'qayzor botqoqliylar , plantatsiyalar , bog'lar , o'rmonlar va tokzorlar uchun mo'ljallangan hamda yarusli pluglar kiradi .

Qo'llaniladigan tortqichning turga qarab ot , traktor va kanat bilan tortiladigan pluglarga bo'linadi.

Otlar bilan tortiladigan pluglarga traktorli pluglar bilan shudgorlashni iloji bo'lmagan kichik maydonlarda foydalaniladi.

Kanat bilan tortiladigan pluglar traktorni harakatlanishi qiyin bo'lgan dalalarda qo'llaniladi.

Traktorlar bilan agregatlanadigan pluglar shudgorlash uchun asosiy zmonaviy shudgorlash qurollari hisoblanib, ular eng ko'p qo'llaniladi.

Agregatlash usuli bo'yicha traktorlar bilan agregatlanadigan pluglarga bo'linadi.

Osma pluglar (2.1-rasm) tuzilishi bo'yicha sodda va eng kam massaga ega. Ular bilan dalalarga ishlov berilganda katta bo'lmagan kenglikdagi buzilishi yo'lakchasi talab qilinadi. Ammo osma pluglar transport holatida traktorga katta burish momenti hosil qiladi va dala relefiga yaxshi moslashmaydi.


Yarim osma pluglar osma pluglarga nisbatan kichik solishtirma qarshiligi, ammo katta burilish radius bilan tavsiflanadi. Transport holatida plug massasining bir qismini traktorning orqa g'ildaralari qabul qiladi.

Tirkama pluglar konstruksiyasiga ko'ra uchta g'ildirak va tirkagich billan ta'minlangan . Ular dala relefiga yaxshi moslashib boshqa pluglarga nisbatan yetarli darajada ravon va turg'un harakatlanadi va yerning sifatli shudgorlaydi.Zamonaviy tirkama pluglarga maxsus ishlarga mo'ljallangan pluglar kiradi.

Korpuslar konstruksiyasiga bo'yicha pluglar lemexlil ,diskli , kombinatsiyalashgan , potatsion va chizelli pluglarga bo'linadi.

Lemexli pluglar eng ko'p tarqalgan bo'lib , ular qadimiy tuproqqa ishlov berish qurollaridan hisoblanadi.

Diskli pluglar og'ir , qurib ketgan va o'tan nam tuproqlarning shudgorlash uchun qo'llaniladi . g'6g'



2.1 rasm. **Osma plug ..**

1-rama; 2-korpus; 3-boronalar uchun tirkama; 4-bikirlik to'sini; 5-diskimon pichoq ustuni; 6-shudgorlash chuqurligini sozlash vinti; 7-tayanch g'ildirak; 8-tirkagich; 9-biriktrish teshigi; 10-bo'ylama tosin; 11-osma tirgagichlari; 12-biriktirish barmoqlarini kronshteynlari 13- briktrish barmoqlari; 14- ramaning ko'ndalang to'sini;

Mujassamlashgan va rotatsion pluglar tajribasimon va ishlab chiqarish tekshiruvlardan o'tmoqda. Chizelli pluglar, ag'dargichsizlar kabi, faqat shartli ravishda pluglar kiritilgan, chunki ular bilan shudgorlashning asosiy sharti – palaxsaning ag'darish oshirilmaydi.

Shudgorlash texnologiyasiga ko'ra yerni an'anaviy usulda va tekis shudgorlaydigan pluglar bo'linadi.

Pluglar turkumiga bir xil vazifadagi va yuqori darajadagi bir xil yig'ma qisimli va detalli pluglar birlashtiriladi.

Unifikatsiyalashgan pluglar turkumi bu almashidigan korpusli umumiy ishlarga mo'ljallangan pluglardir.

Toshli tuproqlar uchun pluglar turmiga avtomatik o'ng va chap saqlagichli mexanizmlar bilan jihozlangan korpusli pluglar kiradi.


Aylanma pluglar turkumi o'ng va chapga ag'daradigan korpuslar bilan ta'minlangan.

Yarusli pluglar turkumini asosan kam hosilli tuproqlar hosildorligini va melioratsiya holatini yaxshilash hamda begona o'tlarga qarshi kurash uchun ishlatiladi.

2.2 lemxli pluglarning umumiy tuzulishi va ish jarayonlari.

Pluglar ishchi organlar va yordamchi qismlardan iborat (2.2-rasm)

Plugning ishchi organlari pichoq, chimqirqar, chuquryumshatgich va korpus. Pichoq tuproq palaxsasining bo'ylama tik tekislikda kesadi. Chimqirqar palaxsaning chimli qismini (2.2b – rasnm) Ajratadi va uni agatiga tashlaydi. Korpus kengligi b va qallinligi a bo'lgan g-simon palaxsaning yoki tuo'g'ri burchakli palaxsaning kesadi, aylantiradi va uvalaydi



2.2 –rasm. Plug korpusi bilan palaxsaning ag'darishning texnologik jarayoni . a- chimqirqarsiz; b- chimqirqar bilan; 1 – chimqirqar;; 2 – korpus.

2.3 Plug pichoqlari. Plug pichog'i yer haydashda hosil bo'ladigan shudgor devorini tik va tekis bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Haydalyotgan yer serildiz bo'lsa, plug korpusi ta'sirida shudgor devoridagi ildizlarni uzib olishga nisbatan, ularni kesib ketishga kamroq kuch sarflanishi sababli, har – bir korpus oldiga, har yili ekin ekiladigan yerlarni

shudgorlashda esa faqat orqadagi korpus oldiga pichoq o`rnatish maqsadiga muvofiqdir. Pichoq shudgor devorini silliq kesib ketsa , shudgor tubiga kamroq tuproq to`kiladi. Plug o`tganida keyin , shudgor tubning toza bo`lishi muhimdir .

Pluglarga o`rnatiladigan pichoqlarning disksimon , chopqisimon va yassi turlari bo`ladi .


Disksimon pichoq (2.3 – a rasm) oddiy va ayrim maxsus pluglarda ishlatiladi .Disksimon pichoqning qalinligi uning bukilmassligini ta`minlashi , radiusi esa ishlov berishdagi maksimal chuqurlikni

60... 70 % eni tashkil etishi kerak .Disksimon pichoqning tig`i ikki tamonidan 15° ... 20° etib charxlanadi .

Disksimon pichoq 1 ayri 2 ga o`rnatilgan o`qda erkin aylanadi .Ayri esa tirsakli ustun 4ta o`rnatilgan va ustun tirsagining buralishi hisobiga , diskning asossiy korpusning dala chet qirqimiga yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish mumkin .Ayri tirsakka nisbatan gorizantal tekislikda 10° 15° ga erkin burilishi mumkin .

Shu sababli disk plug harakat yo`nalishining o`zgarishiga moslanib, burilish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Korpusga nisbatan disksimon pichoqni baland , pasd hamda yaqin yoki uzoqlashtirib o`rnatish mumkin .Disk gupchagi bilan yer yuzasi orasida 1 ...2 sm oraliq qoldirib o`rnatiladi.Disk o`qi esa chimqirqar lemxi tumshig`i ustida , agar chimqirqar o`rnatilmagan bo`lsa , asosiy korpus lemxi tumshig`ining ustida joylashtiriladi .G'7G'



2.3 rasm. Plug pichoqlari

a- disksimon ; b-chopqisimon ; b – yassi , tayanch chang`ili , 1-disk ; 2- ayri; 3- tojsimon gayka; 4 – o`q; 5 – qisqich ; 6 – chopqisimon pichoq tig`i; 7- pichoq yuzasi; 8-dastak; 9- yassi pichoq ;10- sirpanchig`i ;11-tayanch;

Ayrim vaqtda tig`i burmalangan disklardan hamn foydalanadi.

Cho`piqsimon pichoq (2.3b-rasm) plantatsiyabop , o`rmonbop , changalzor botqoqbop kabi maxsus pluglarda ishlatiladi, chunki yo`g`on ildizlarni disksomon pichoq kesa olmasa , ko`tarilib ketishi mumkin . Bunday joylarda cho`piqsimon pichoq yaxshi natija ko`rsatadi; tuproq va mayda ildizlarni kesib ketsa , yo`g`onlarni turtib yer yuzasiga chiqarib ketadi.Sertosh yerlarda ham cho`piqsimon pichoq yaxshiroq ishlaydi.

